

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

PEDAGOGIKA FAKULTETI

BOSHLANG'ICH TA'LIM VA TARBIYAVIY ISH YO'NALISHI

«UMUMIY PEDAGOGIKA» FANIDAN

**«SHAXS VA UNING KAMOLOTI»
MAVZUSIDAGI**

KURS ISHI

Bajaruvchi: 1-bosqich talabasi S.Anorova

Ilmiy rahbar: Sh.O'roqov

Kurs ishi pedagogika kafedrasida bajarildi.

Kafedra mudiri:

dots. A.Abdumannotov

Kurs ishi kafedraning 2013-yil ____ iyunda bo'lib o'tgan ____-sonli majlisida
himoya qilindi va _____ foizga baholandi

Komissiya raisi: _____

A'zolari: _____

SAMARQAND – 2013

REJA

KIRISH

ASOSIY QISM

- 1. Shaxs tushunchasi. Shaxs - tarbiyaning obyekti va subyekti.**
- 2. Shaxs shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar**
- 3. Shaxsni shakllantirishning mazmuni va yo'nalishlari**

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Inson hayot ekan, butun umri davomida o'sib, rivojlanib, o'zgarib boradi. Bolalik, o'smirlik va o'spirinlik yillarida shaxsning kamol topishi yaqqol ko'zga tashlanadi.

Shaxsning shakllanishi deganda biz shaxsning hamjismaniy, hamaqliy va ma'naviy kamol topish jarayonini tushunamiz. Pedagogika va psixologiya fani rivojlanishni biologik va social xususiyatlari o'zaro chambarchas bog'liq bo'lgan bir butun narsa deb hisoblaydi. Odam bolasining shaxs sifatida rivojlanishi har tamonlama kamol topishining samarali bo'lishiga erishish maqsadida pedagogika fani rivojlanishining qonuniyatlarini unga ta'sir etuvchi omillarni shuningdek, shaxs kamolotida ta'lim va tarbiya hamda faoliyatining ta'siri va ahamiyatini aniqlaydi va tahlil qiladi. Ma'lumki, odam shaxs sifatida dunyoga kelmaydi, balki uning shakllanishi avvalo hayot sharoitlariga bog'liqdir. Shaxs hayot davomida murakkab rivojlanish jarayonini boshdan kechiradi, natijada shaxsga aylanadi. Shu sababli shaxsni ma'lum ijtimoiy tuzumning mahsuli deb tushunishimiz lozim.

Har bir jamiyatda shaxsning shakllanishi, kamol topishi muhim muammolardan hisoblanadi. Shu sababli shaxsning shakllanishi masalalariga to'g'ri yondashish uchun shaxsning tabiatini, tuzilishini, uning xulq-atvorini va unga ta'sir sabab va vositalarini bilish zarur.

Shaxsning rivojlanishi jarayoni bir qancha omillar ta'sirida sodir bo'ladi. Bular irsiyat, ya'ni biologik omil hamda muhit, ta'lim va tarbiya, shaxs faolligi (ijtimoiy omil) shaxsni shakllantirishning asosiy omillari deb tushuniladi.

Ma'lumki, shaxs, inson tirik organizmdir, shu sababli uning hayoti biologiyaning umumiy qonunlariga, yoshlar anatomiyasi va fiziologiyasining maxsus qonunlariga bo'ysunadi. Shaxsning, ayniqsa bolaning jismoniy rivojlanishi, sog'ligi biologik omilga bog'liqdir. Biologiyaning asosiy tushunchasi bo'lgan irsiyatning, ya'ni bolaning nasl-nasabining roliga olimlarimiz alohida e'tibor bermoqda. Harbir bola insonlarga xos tug'ma xususiyatlar bilan dunyoga keladi. Bola o'zining avlod-ajdodlaridan ko'pgina biologik belgilarni meros sifatida qabul qilib oladi, xatto ayrim kasalliklar hamnasldan naslga o'tadi. Biologik omillar

shaxsning jismoniy rivojlanishiga hamta'sir ko'rsatadi. Shunday ekan, sog'lom otadan sog'lom farzand dunyoga kelishini unutmasligimiz lozim.

Prezidentimiz "Sog'lom avlod yili"ni e'lon qilar ekan: "Sog'lom avlod deganda, shaxsan men, eng avvalo sog'lom naslni, nafaqat jismonan baquvvat shu bilan birga ruhi, fikri sog'lom, iymon-e'tiqodi butun bilimi, ma'naviyati yuksak mard va jasur, vatanparvar avlodni tushunaman", deb ta'kidlaydi.

Sog'lom avlod tarbiyasi oson ish emas, u har bir inson, har bir oila, butun jamiyatdan jiddiy e'tibor va uzluksiz mehnat talab qiladi. Prezidentimiz fikrlarini davom ettirar ekanlar: "...hech shubha yo'q, sog'lom avlod orzusi ajdodlarmizdan bizga o'tib kelayotgan, qon-qonimizga singib ketgan muqaddas intilishdir. Agar otabobolarimizning turmush tarziga, tafakkuriga nazar solsak, ular nasl-nasab, etti pushtining tozaligiga, avlodning sog'ligiga juda katta e'tibor berganini ko'ramiz. Sog'lom bolaning tug'ilishi, eng avvalo, onaning sog'ligiga bog'liq", deb ta'kidlaydi yurtboshimiz. Xudo taolo yaratgan tabiatning buyuk mo'jizasi bo'lmish ayol dilbandini to'qqiz oy o'z bag'rida, yurak ostida avaylab dunyoga keltiradi. Uni voyaga etkazish uchun o'zini ayamaskan, butun hayotini baxshida etadi.

Ana shu jarayonda ayol neki yaxshilik yoki yomonlik ko'rsa, ona vujudi orqali homilaga o'tadi. Sog'lig'i nochor, xo'rlangan, iztirob chekkan onadan sog'lom farzand tug'ilmaydi. Sog'lom bolaning dunyoga kelishida otaning hamqoni toza, tani va ruhi sog'lom bo'lishiga bog'liq. Bir so'z bilan aytganda, sog'lom farzand faqat sog'lom oilada tug'iladi. Oilaning sog'lomligini, undagi muhit, ota-onaning totuvligi, bir-birini tushunishi, qo'llab-quvvatlashi o'zaro izzat-hurmati belgilaydi.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, shaxs ijtimoiy hayotning mahsuli ekan, u albatta bolani o'rab olgan muhit ta'sirida rivojlanadi. Shaxsning hayoti faoliyati davomida muhit unga yo ijobiy, yo salbiy ta'sir ko'rsatishi, rivojlanish imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi yoki yo'q qilishi mumkin.

Tarbiya shaxsning rivojlanishini ta'minlashi uchun boladagi rivojlanishning mohiyatini tushunish, bilish faoliyatining o'zgarish sabablarini aniqlash zarur. Tarbiya haqiqatan rivojlantiruvchi omil bo'lmog'i uchun tarbiyalanuvchi

jamiyatning tarbiya oldiga qo'ygan talablarini, shaxsning o'ziga xos xususiyatlarini bilishi zarur. Pedagogika fani shaxs rivojlanishida tarbiyaning etakchilik rolini e'tirof etish bilan birga ularning o'zaro bir-biriga ta'sirini tan oladi.

Shaxsning rivojlanib kamol topishi, hayotning hamma bosqichlarida bir xil bo'lmay, balki yosh xususiyatlari va hayot tajribalariga qarab har xil bo'ladi. Tarbiya jarayonida o'sayotgan avlodning yosh va o'ziga xos xususiyatlarini bilish va hisobga olish juda zarur. Ma'lumki, bir xil yoshdagi bolalarning, o'quvchi-talabalarning har birini o'ziga xos xususiyatlari, psixik jarayonlari mavjud.

K.D.Ushinskiy ta'kidlaganidek, pedagogika fanining eng muhim vazifasi shaxs rivojlanishini har jihatdan o'rganishdir va o'qituvchining ishda muvaffaqiyat qozonish sharti o'z o'quvchilarining xislat va xususiyatlarini bilishidir.

Tadqiqot maqsadi: Shaxs tushunchasi va uning mohiyati, shaxs kamoloti, shaxs shakllanining mazmuni va uning yo'nalishlarini aniqlash.

Tadqiqot obyekti: Shaxsni shakllanish jarayoni

Tadqiqot predmeti: Shaxs shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar, shaxs shakllanishi mazmuni va yo'nalishlari

Tadqiqot vazifalari:

1. Mavzuga oid ilmiy-nazariy manbalar, ilmiy adabiyotlar, ilmiy tadqiqot ishlari bilan tanishish.
2. Shaxs tushunchasini yoritish hamda shaxsni - tarbiyaning obyekti va subyekti sifatida tahlil etish
2. Shaxs shakllanishiga ta'sir etuvchi omillarni nazariy tahlil qilish
3. Shaxsni shakllantirishning mazmuni va yo'nalishlarini belgilash

Tadqiqotning metodologik asosi: O'zbekiston Respublikasi uzluksiz ta'lim tizimining mazmunini belgilab beruvchi direktiv-me'yoriy hujjatlar, xususan, O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» gi Qonuni, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov tomonidan ta'lim sohasida ilgari surilgan shaxs kamolotiga oid g'oyalar; Tadqiqotchi olimlarning ilmiy asarlaridan iborat.

ASOSIY QISM:

1.Shaxs tushunchasi. Shaxs - tarbiyaning obyekti va subyekti.

Shaxs deganda muayyan jamiyatning a'zosi tushuniladi. Odam shaxs bo'lishi uchun ruhiy jihatdan taraqqiy etgan, o'z xususiyati va sifatlari bilan boshqalardan farq qilishi lozim. Har bir odam shaxs sifatida turlicha namoyon bo'ladi. U o'zining xarakteri qiziqishi va qobiliyati aqliy rivojlanganlik darajasi, ehtiyoji, mehnat faoliyatiga munosabati bilan farqlanadi. Bular shaxsni o'ziga xos xususiyati bo'lib, ana shu ruhiy xususiyatlari rivojlanib ma'lum bir bosqichga yetsagina u mukammal kamol topgan inson deyiladi. Shaxsning ijtimoiy voqye'likka, mehnatga, kishilarga, jamiyatga bo'lgan munosabati turlicha,uning faollik darajasi va odob-axloq borasida yetukligi ham turlicha.

Shaxs nomini olish uchun nimalar darkor?

Odamning ijtimoiy mavjudot sifatida shaxs nomini olish uchun unga ijtimoiy-iqtisodiy hayot va tarbiya kerak. Shu sababli pedagogika fani bolaning shaxs sifatida rivojlanishi, uning har tomonlama kamolga yetish qonuniyatlarini, unga ta'sir etuvchi obyektiv va subyektiv omillarni, rivojlanish jarayoniga aloqador davrlarini aniqlash kerak. Shunga asosan pedagogika fani shaxsning rivojlanishda va ta'lim, o'qitish, tarbiya hamda bola faolligi, o'z-o'zini tarbiyalash bosqichlarini aniqlash lozim. Hzbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov Oliy Majlisning I chaqiriq I sessiyasida qilgan ma'ruzasida hur O'zbekistonda demokratik tuzumni barpo etishda amalga oshirilayotgan ulkan o'zgarishlarni asosiy ishtirokchilari bo'lgan jamiyatimiz a'zolarining ma'naviyatini butunlay yangicha qaror toptirish lozimligini ta'kidlagan edi.

Chunki ta'lim tarbiya - ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini xam belgilaydigan omildir. Binobarin, ta'lim-tarbiya tizimini o'zgartirmasdan turib ongni o'zgartirib bo'lmaydi. Ongni, tafakkuri o'zgartirmasdan turib esa biz ko'zlagan oliy maqsad ozod va obod jamiyatni barpo etib bo'lmaydi.

Shaxs tarbiyaning obyekti va subyekti hisoblanadi. Shaxsning kamol topishida ijtimoiy va biologik omillarning ta'sir kuchi bir xil bo'lmaydi. Shaxsning rivojlanish holatini to'g'ri baholash va bilish uchun uni turli munosabatlar doirasiga qo'yib tuzatish lozim. Pedagogika shaxsning kamoliga yetishishning murakkab va ziddiyatli jarayon deb biladi. Shaxs qaysi o'quvchilarda o'z-o'zini tarbiyalashda ya'ni uz ustida ongli batartib ishlashga ehtiyoj paydo bo'lgandagina, tarbiya jarayonini samarali deb hisoblasa buladi.

Kishilik jamiyati taraqqiyotida shaxsni tarbiyalash muammosi. Odam shaxs bo'lishi uchun psixik jihatdan rivojlanishi, o'zini yaxlit inson sifatida his etishi, o'z xususiyatlari va sifatleri bilan boshqalardan farq qilmog'i kerak.

“Individ” nima? Bola ma'lum yoshga qadar “individ” sanaladi. Individ (lotincha “individuum” so'zidan olingan bo'lib, «bo'linmas», «alohida shaxs», «yagona» ma'nolarini anglatadi) xatti-harakatlarini shartli refleks yordamidagina tashkil eta oluvchi biologik mavjudotdir.

Individuallik esa shaxsning o'ziga xos xususiyatlari bo'lib, uning namoyon bo'lishi, tarbiya jarayonini amalga oshirishda bola shaxsini puxta o'rganish, uning yashash sharoitlaridan yetarli darajada xabardor bo'lish va ularning hisobga olinishini taqozo etadi.

Individual yondashuv o'quvchilarning aqliy qobiliyatlari, bilishga bo'lgan qiziqish hamda iste'dodini namoyon etishda muhim ahamiyatga ega.

Bola harakatlari ongli, ijtimoiy munosabatlar jarayonidagi ishtiroki natijasida shakllana boradi.

Kadrlar tayyorlash milliy modelida shaxs kadrlar tayyorlash tizimining bosh subyekti va obyekti, ta'lim sohasidagi xizmatlarining iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchi sifatida ta'riflanadi.

Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash, uning har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida namoyon bo'lishiga erishishni nazarda tutadi. Mazkur ijtimoiy talabning amalga oshirilishi har bir fuqaroning bilim olish, ijodiy qobiliyatini namoyon etish,

intellektual jihatdan rivojlanishi hamda muayyan kasb yo'nalishi bo'yicha mehnat qilish huquqini kafolatlaydi.

Odamning ijtimoiy mavjudot sifatida shaxsga aylanishi uchun ijtimoiy muhit sharoitlari va tarbiya kerak bo'ladi. Ana shular ta'sirida odam inson sifatida rivojlanib boradi va shaxsga aylanadi.

Rivojlanishning o'zi nima?

Rivojlanish shaxsning fiziologik va intellektual o'sishida namoyon bo'ladigan miqdor va sifat o'zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayondir. Rivojlanish mohiyatan oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga, eski sifatlardan yangi holatlarga o'tish, yangilanish, yangining paydo bo'lishi, eskining yo'qolib borishi, miqdor o'zgarishining sifat o'zgarishiga o'tishini ifodalaydi. Rivojlanishning manbai qarama-qarashliklarni o'rtasidagi kurashdan iboratdir.

Bola shaxsining rivojlanishi inson ijtimoiy mavjudotdir, degan falsafiy ta'limotga asoslanadi. Ayni vaqtda inson tirik, biologik mavjudot hamdir. Demak, uning rivojlanishida tabiat rivojlanishining qonuniyatlari ham muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, shaxs bir butun mavjudot sifatida baholanar ekan, uning rivojlanishiga biologik va ijtimoiy qonuniyatlar birgalikda ta'sir etadi, ularni bir-biridan ajratib bo'lmaydi.

Chunki shaxsning faoliyati, hayot tarziga uning yoshi, bilimi, turmush tajribasi bilan birga boshqa fojiali holatlar, kasalliklar ham ta'sir etadi.

Inson butun umri davomida o'zgarib boradi. U ham ijtimoiy, ham psixik jihatdan kamolga yetadi, bunda bolaga berilayotgan tarbiya maqsadga muvofiq bo'lsa, u jamiyat a'zosi sifatida kamol topib, murakkab ijtimoiy munosabatlar tizimida o'ziga munosib o'rin egallaydi. Chunki rivojlanish tarbiya ta'siri ostida boradi.

Shaxsning fazilatlarini to'g'ri ko'rish va bexato baholash uchun uni turli munosabatlar jarayonida kuzatish lozim.

Demak, shaxsni rivojlantirish vazifasini to'g'ri hal etish uchun uning xulqiga ta'sir etuvchi omillar hamda shaxs xususiyatlarini yaxshi bilish zarur.

Tarbiya bolaga samarali ta'sir etishi uchun o'sish va rivojlanish qonuniyatlarini bilish va hisobga olish maqsadga muvofiq. Shunday qilib, rivojlanish va tarbiya o'rtasida ikki tomonlama aloqa mavjud.

Shaxs tarbiyasiga ta'sir etuvchi omillar. Fanda odamning shaxs sifatida rivojlanishiga biologik va ijtimoiy omillarning ta'siri o'rtasidagi munosabatni belgilashga oid munozara ko'pdan buyon davom etmoqda.

Insonning shaxs sifatida rivojlanishida ijtimoiy hodisalarning ta'siri kuchli bo'ladimi? Yoki tabiiy omillar yetakchi o'rin tutadimi? Balki tarbiyaning ta'siri yuqoridir? Ular o'rtasidagi o'zaro munosabat qanday?

Fanda biologik yo'nalish deb nomlangan nuqtai nazar yetakchi o'rinlardan birini egallab, uning vakillari Aristotel, Platonlar tabiiy-biologik omillarni yuqori qo'yadi. Ular tug'ma imkoniyatlar, taqdir, tole har kimning hayotdagi o'rnini belgilab bergan, deydilar.

XVI asr falsafasida vujudga kelgan preformizm oqimi namoyandalari esa shaxs rivojlanishida naslning rolga katta baho berib, ijtimoiy muhit va tarbiyaning rolini inkor etadi.

Xorij psixologiyasidagi yana bir oqim – bixeviorizm XX asr boshlarida yuzaga kelgan bo'lib, uning namoyandalari, ong va aqliy qobiliyat nasldan-naslga o'tib, insonga u tabiatan berilgan, deyiladi. Mazkur ta'limot vakili amerikalik olim E.Torndaykdir.

Pragmatizm oqimi va uning vakillari D.D'yul, A.Kombe ham shaxs rivojlanishini biologik nuqtai nazardan asoslaydilar. Ular rivojlanishni faqat miqdoriy o'zgarishdan iborat, deb qaraydilar. Naslning rolini absolyutlashtirib, uni inson taqdirida hal qiluvchi ahamiyatga ega deb biladilar.

Demak, bir guruh xorijiy olimlar rivojlanishni biologik (nasliy) omilga bog'laydilar.

Biologik oqimga qarshi falsafiy oqim vakillari rivojlanishni ijtimoiy omil bilan belgilaydilar. Bu oqim vakillari bola shaxsining jismoniy, psixik rivojlanishi u yashaydigan muhitga bog'liq, deb ko'rsatadilar.

Muhit deganda odam yashaydigan sharoitdagi barcha tashqi ta'sir tushuniladi. Shu nuqtai nazardan tarbiya tufayli bolani o'zi yashaydigan ijtimoiy sharoitga moslashtirish mumkin, degan xulosa kelib chiqadi.

Ular ijtimoiy muhitning rolini hal qiluvchi omil deb hisoblaydilar. Demak, odam bolasining shaxs sifatida rivojlanib, taraqqiy etib borishi, uning shaxs bo'lib kamolga yetishida nasl (biologik omil), ijtimoiy muhit (bola yashaydigan sharoit), shuningdek, maqsadga muvofiq amalga oshadigan tarbiya ham birdek ahamiyatga ega. Bu omillarning ta'sirini aniqlashda ilg'or pedagogik olimlar, psixolog va faylasuflar ta'limotiga tayaniladi.

Falsafada shaxsni jamiyat bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy hayotdagi murakkab voqyelik deb qaraladi. Ular individning ma'naviy boyligi uning munosabatlariga bog'liq, deb hisoblaydilar.

Haqiqatdan ham, shaxs mehnat faoliyati zaminida rivojlanadi, kamolga yetadi. Inson sharoitni, sharoit esa odamni yaratadi. Bu esa o'z navbatida inson faolligini namoyon etadi. Zero, shaxs ma'lum ijtimoiy tuzum mahsulidir. Jamiyat shaxs kamolotining muayyan imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi yoki yo'q qilishi mumkin.

Faylasuflar shaxsni tabiatning bir bo'lagi deb baholaydilar. Bu insondagi layoqat kurtaklari bo'lib, uning rivojlanishi uchun tarbiya kerak, degan g'oyani ifodalaydi.

Jamiyat taraqqiyoti shaxs rivojlanishi uchun keng imkoniyatlarni yaratadi. Demak, shaxs bilan jamiyat o'rtasida ham uzviy aloqa mavjud.

Shunday qilib, odam shaxsining jamiyatdagi rivojlanishi tabiat, muhit, inson o'rtasidagi murakkab aloqa ta'siri ostida ro'y beradi, inson ularga faol ta'sir etadi va shu yo'l bilan hayoti va o'z tabiatini o'zgartiradi.

Shaxsga ijtimoiy muhitning ta'siri ham muhim. Bu tarbiya tizimi orqali amalga oshiriladi. Ya'ni:

Birinchidan, tarbiya ta'sirida muhit bera olmagan bilim, ma'lumot egallanadi, mehnat va texnik faoliyat bilan bog'liq ko'nikma va malakalar hosil bo'ladi.

Ikkinchidan, tarbiya tufayli tug'ma kamchiliklar ham o'zgartirilib, shaxs kamolga yetadi.

Uchinchidan, tarbiya yordamida muhitning salbiy ta'sirini ham yo'qotish mumkin.

To'rtinchidan, tarbiya kelajakka qaratilgan maqsadni belgilaydi.

Demak, tarbiya bilan rivojlanish bir-biriga ta'sir etadi, bu tarbiya doimiy va uzluksizdir.

Shunday qilib, bola shaxsining rivojlanishida tarbiya ham yetakchi o'ringa ega bo'lib, tarbiya tufayli nasl-nasabi, oila muhiti, ijtimoiy muhit ta'sirida har tomonlama rivojlanishga qodir, degan xulosani chiqarish mumkin.

2. Shaxs shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar

Shaxs rivojlanishida irsiyat, muhit, tarbiya bilan bir qatorda inson faoliyati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu degani inson qanchalik mehnat qilsa, uning rivojlanishi shunchalik yuqori bo'ladi.

Faoliyat o'zi nima? Faoliyat shaxs tomonidan tabiiy va ijtimoiy hayotni maqsadga muvofiq tashkil etiluvchi kundalik, ijtimoiy yoki kasbiy harakatlarning muayyan shakli, ko'rinishi. Insonning qobiliyati va yoshi u tomonidan tashkil etilayotgan faoliyat mohiyatiga ko'ra belgilanadi.

Faoliyat jarayonida inson shaxsi, har tomonlama va bir butun, yaxlit holda rivojlanadi. Lekin faoliyatni maqsadga muvofiq amalga oshirishi uchun uni to'g'ri tashkil etish lozim. Lekin ko'p holatlarda shaxsning rivojlanishi uchun imkoniyatlar yaratilmaydi, tarbiyalanuvchilarning ijtimoiy mehnat, bilish faoliyatlari cheklangan bo'ladi.

O'smir va o'spirinlar faoliyatining asosiy turlariga o'yin, o'qish va mehnat kiradi. Ular yo'nalishiga ko'ra bilishga doir, ijtimoiy, sport, badiiy, texnik, hunarmandchilik hamda shaxsiy qiziqish asosida tanlangan sohalardan iborat. Faoliyatning asosiy turi – muloqotdir.

Faoliyat faol va passiv bo'lishi mumkin. O'smir faoliyati muhit va tarbiya ta'sirida faollashishi yoki susayishi mumkin. Inson shaxsining rivojlanishida uning butun vujudi bilan sevib, o'z imkoniyatlarini namoyon etib, mehnat qilishi, o'zini shaxs sifatida ko'rsata olishi, unda o'z faoliyatidan qoniqish hosil qiladi. Uning ijtimoiy mehnatdagi ishtirokida faollik ko'zga tashlanadi.

Ta'lim jarayonida faollik o'quvchiga bilimlarni chuqur va mustahkam egallashga, o'z qobiliyatini namoyon etishga yo'llaydi. Bilishga bo'lgan faollik o'quvchining intellektual rivojlanishini ta'minlaydi.

Faollik ko'rsatishning asosini esa hamma vaqt ehtiyoj tashkil etadi. Ehtiyojlarning xilma-xilligi faoliyatning ham turlarini kengaytiradi. Shunga ko'ra, o'quvchining turli yosh davrlarida ularning faoliyati turlicha bo'ladi. Ta'lim

muassasasida bir xil talab shaxs rivojlanishida har doim ijobiy natija beravermaydi. Turli yosh davrlarida faoliyatning turlari va mohiyati o'zgarib turishi kerak.

Insonning ijtimoiy faolligi, qobiliyati barcha muvaffaqiyatlarining garovidir. Chunki har bir inson o'z mehnati, g'ayrati, intilishi bilangina faollashadi. O'qituvchi qanchalik yaxshi o'qitmasin yoki tarbiya bermasin, tarbiyalanuvchining o'zi harakat qilmasa, rivojlanish muvaffaqiyatli kechmaydi. Zero, barcha ma'naviy-axloqiy kamchiliklarning asosiy sababi ham insonning o'z faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'ymaganligidadir.

Shuning uchun ham inson faoliyati uning rivojlanishi natijasi hamdir. Demak, shaxs faolligi asosida ijtimoiy faollik, tashabbuskorlik, ijodkorlik hislatlarini shakllantirish – uning shaxslik imkoniyatlarini namoyon etishi orqali faoliyatini rivojlantirish muhim sanaladi.

Rivojlanishning yosh va o'ziga xos xususiyatlari. Muayyan bir yosh davriga xos bo'lgan anatomik, fiziologik (jismoniy) va psixologik xususiyatlar yosh xususiyatlari deb ataladi. Ana shu yosh xususiyatlarni hisobga olgan holda ta'lim va tarbiya ishi tashkil etiladi. Shunda bola rivojlanishiga tarbiya ta'siri kuchli bo'ladi.

Bolaning individual – o'ziga xos xususiyatini bilish uchun temperamentning umumiy tiplari va bolaning o'ziga xos xususiyatini o'rganish metodikasini bilish muhim. Temperament (lot. «temperamentum» «qismlarning bir-biriga munosabati» ma'nosini anglatib, shaxsning individual psixologik xususiyatlari majmuidir. Shuningdek, turli yosh davrlarining o'ziga xos rivojlanish qonuniyatlari ham mavjud. Masalan, 5-sinf o'quvchilari bilan 10-sinf o'quvchisini tenglashtirib bo'lmaydi. Shuning uchun bolaning jismoniy va psixik kamoloti quyidagi davrlarga bo'linadi:

1. Go'daklik davri – chaqaloqlik (1 oy) davri tugagandan to bir yoshgacha bo'lgan davr.
2. Bog'chagacha bo'lgan yosh davri – 1 yoshdan 3 yoshgacha.
3. Maktabgacha ta'lim yoshi – 3 yoshdan 7 yoshgacha.
4. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar –7-11-12 yoshgacha.

5. O'rta maktab yoshidagi o'quvchilar (o'smirlar) 14-15 yosh.
6. Katta yoshdagi maktab o'quvchilari (o'spirinlar) – 16-18 yosh.

Pedagoglik kasbining shakllanishi kishilik taraqqiyoti tarixi bilan uzviy bog'liq. Terib-termachilab kun kechirgan ibtidoiy davr kishilari bolalarni o'zlari bilan ergashtirib yurib, ularga ov qilish, turli daraxt mevalarini terish, o'simliklarning ildizi kovlab olish, suv manbalarini izlab topish kabi harakatlarni amalga oshirishni o'rgatganlar. Bunday harakatlar qabila(urug')ning tajribali kishilari yoki keksalar tomonidan amalga oshirilgan. Oddiy kundalik ehtiyojlarni qondirish yo'lida olib borilayotgan hatti-harakatlar asosida yoshlarga mavjud tajribalar asosida ma'lumotlarni berib, ularda amaliy ko'nikmalarni shakllantirganlar. Turli tovushlarni chiqarish yordamida atrofdagilarni yaqinlashayotgan xavfdan ogoh qilishni bolalar kattalarning namunalari asosida o'zlashtirganlar. Nutq va yozuv paydo bo'lgunga qadar bu kabi harakatlar imo-ishoralar asosida amalga oshirilgan. Kishilik tarixida tub inqilobni sodir etgan nutq va yozuvning paydo bo'lishi, shuningdek, urug' jamoasi tomonidan bajariladigan mehnat faoliyatining turli sohalarga ajralishi yoshlarga nisbatan munosabatning ilg'or (progressiv) xarakter kasb etishiga imkon berdi.

Turli tabiiy ofatlar ta'siridan himoyalaniş, kishilar hayotiga xavf solayotgan kasalliklarni davolash, hayot kechirish uchun yetarli oziq-ovqatlarni jamlab olishga bo'lgan tabiiy ehtiyoj yoshlarga hayotiy tajribalarni ma'lum mehnat faoliyati yo'nalishida yetarlicha bilimga ega bo'lgan kishilar tomonidan berilishi maqsadga muvofiq ekanligini ko'rsatdi. Natijada bolalarga hayot tajribalarini o'rgatuvchi kishilar guruhi shakllandi hamda bolalarga ma'lum yo'nalishlar bo'yicha bilimlarni berish maxsus ajratilgan joylarda tashkil etila boshlandi.

Dastlabki maktablar qadimgi Sharqda (Vavilon, Misr, Hindistonda paydo bo'lib, ularda bolalarga ma'muriy-xo'jalik boshqaruvi asoslari o'rgatilgan.

Antik davrda maktablar Sparta, Afina va Rim tarbiya tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida faoliyat olib borganlar. Qadimgi Yunonistonda bunday

joylar akademiya deb nomlangan. «Akademiya» so'zi afsonaviy qahramon Akademi nomidan kelib chiqqan. Eramizdan avvalgi IV asrda Afina yaqinidagi Akademi nomi bilan nomlanuvchi joyda Platon o'z shogirdlariga ma'ruzalar o'qigan bo'lib, keyinchalik ta'lim tashkil etiluvchi maskan ham shunday nom bilan atala boshlagan. Qadimgi Rim va Yunonistonda bolalarga bilim berish faylasuflar zimmasiga yuklatilgan.

Jamiyatning tabaqalanishi natijasida quldorlik tuzumida bolalarni ta'lim maskanlariga olib borish va olib kelish vazifasini qullar bajarishgan va ular «pedagog» deb nomlanganlar. Ushbu tushunchaning ma'nosi «bola yetaklovchi» demakdir.

Tarixiy taraqqiyotning keyingi bosqichlarida bolalarga tizimli bilimlarni berish bilan doimiy shug'ullanuvchi kishilar aynan shu nom bilan atala boshlanganlar.

Feodalizm davrida aksariyat maktablar masjid (musulmon mamlakatlarida) yoki ibodatxonalar (Hindiston) qoshida tashkil etilgan. Bunday maktablarda yoshlarga diniy bilimlar bilan birga dunyoviy bilimlar ham o'rgatilgan.

O'rta asrlar davrida Sharqda akademiya ko'rinishidagi ta'lim muassasalari ham faoliyat yuritgan bo'lib, ular «Donishmandlar uyi» (IX asr, Bag'dod), «Ma'mun akademiyasi» (XI asr boshlari, Xorazm), observatoriyalar qoshidagi jamiyatlar (XV asr, Samarqand) tarzida nomlangan. Akademiyalarga turli fan yo'nalishlari bo'yicha kuchli bilimga ega bo'lgan qomusiy olimlar jalb etilgan bo'lib, ular tomonidan matematika, geodeziya, mineralogiya, medisina, astronomiya kabi yo'nalishlarda keng ko'lamli tadqiqotlar olib borilgan.

O'rta asrlar hamda kapital ishlab chiqarishiga asoslangan jamiyatlarda akademiya (Sharqda madrasa)lar ko'rinishidagi maktablarda ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk, turli sohalar bo'yicha mukammal bilimga ega pedagoglarning faoliyat yuritishlariga alohida ahamiyat qaratilgan. Chunonchi, Muhammad Tarag'ay Ulug'bek tomonidan barpo etilgan madrasalarda o'z davrining taniqli olimlari – Ali Qushchi, Taftazoniy, Qozizoda Rumi, Mavlono Muhammad,

G'iyosiddin Jamshid Koshiy, Muiniddin Koshiy hamda Mansur Koshiylar talabalarga ta'lim berganlar.

XIX asr oxiri hamda XX asr boshlarida yuzaga kelgan jadidizm harakatining asoschilari, taniqli ma'rifatparvarlar – Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar Qori, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Avloniy, Abduqodir Shakuriy, Ismatulla Raxmatullayev, Abdurauf Fitrat, Isohxon Ibrat va boshqalar aholi orasida nafaqat murabbiy, balki ma'naviy yetuk inson sifatida ham nom qozondilar.

1.2. Shaxsni shakllantirishning mazmuni va yo'nalishlari

Barkamol inson – o'zida ma'naviy-axloqiy hislatlar majmuini mujassamlashtirgan, jamiyatda o'zligini va o'z qobiliyatini har tomonlama namoyon eta oladigan, ma'rifatli, dunyoviy bilimlarni mukammal egallagan, yuksak iste'dodli va intellektual salohiyatga ega bo'lgan ma'naviy jihatdan yetuk, axloqan pok, jismonan sog'lom, hayot go'zalliklarini his eta oladigan ijodkor shaxsdir.

Ta'limni insonparvarlashtirish deganda yosh avlodda boy estetik hissiyot, yuksak ma'naviyat, madaniy va ijodiy tafakkurni shakllantirish va har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalashning ustivor yo'nalishlarini o'z ichiga olgan ta'lim-tarbiya dasturlarini takomillashtirish nazarda tutiladi. Bunda, ta'lim oluvchida mustaqil shaxsni tarbiyalash, unda bilim olish madaniyatini shakllantirish, shaxsiy va ijtimoiy faolligini oshirish, mustaqil fikrlash hamda shaxsiy g'urur, ishonch kabi hislatlarni hosil qilishga alohida e'tibor berilishi kerak.

Talaba-yoshlarda insonparvarlik fazilatlari, eng avvalo ularning o'zidan katta yoshdagilar – ota-ona, yaqinlari, o'qituvchilar va boshqalar bilan bo'lgan munosabatlari orqali shakllanib, so'ng tengqurlari bilan munosabatlarda takomillashadi. Shu ma'noda insonparvarlik shaxs ta'rifi va tavsifining bosh mezoni sifatida, uning shaxs ruhiyatida vujudga kelish, shakllanish va taraqqiy etish jarayonlari va qonuniyatlarini o'rganish yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalamda, ularning har tomonlama uyg'un taraqqiy etishlarini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Bu o'rinda uzluksiz ta'limni ham insonparvarlashtirish muhim vazifadir.

Barkamol shaxsni voyaga yetkazish ijtimoiy-madaniy qadriyatlarni insonning ijtimoiy intizomi va uning ixtisoslik bo'yicha mehnat faoliyatining ajralmas va tabiiy belgilariga, xususiyatlariga aylashtirishdan iborat bo'lib, bo'lajak mutaxassisning insonparvarlik sifat va fazilatlarining ustivor bo'lishini ta'minlashga qaratiladi. Tarbiyaviy ishlar rejalari gumanitar turkumdagi fanlarning, shu jumladan, ijtimoiy-iqtisodiy fanlarning insonparvarlik xususiyatlaridan ham

ta'lim-tarbiya jarayonlarida unumli va samarali foydalanishni keng yo'lga qo'yish bilan birga, bu turkumga kirmagan fanlar, ya'ni fizika, kimyo, biologiya, matematika, shuningdek, texnika fanlari va umuman talim tizimida o'tiladigan barcha fanlarning ham tarbiyaviy tamoyillariga, insonning ma'naviy-ahloqiy ruhiy jihatdan takomillashtirish imkoniyatlariga alohida ahamiyat va e'tibor qaratishni, ularning insonparvarlik xususiyatlarini kengroq ochib, tahlil etib ko'rsatib berishni, talaba yoshlarni o'qitish orqali ma'naviy-ruhiy jihatdan ham tarbiyalashni maqsad qilib qo'yadi. O'quv dasturlarining, darslik va qo'llanmalarining yangi avlodini yaratishda, ta'limning texnik vositalaridan foydalanishda, ular uchun maxsus o'quv dasturlari tayyorlashda ta'limni gumanitarlashtirishning mana shu tomonlariga, ya'ni yosh mutaxassislarning ma'naviy-ahloqiy jihatdan barkamol shaxs sifatida takomillashuvida har bir fanning ishtirokini eng yuqori darajada ta'minlashga katta e'tibor berilishi zarur.

Hozirgi kun fan, madaniyat va ta'lim sohalarida ham katta o'zgarishlar amalga oshirilmoqda, islohotlarning sur'atlari tobora jadallashmoqda. Biroq axborotlar asri talablariga muvofiq o'zgarayotgan hayotimiz ehtiyojlari jamiyat oldiga yangidan-yangi vazifalarni ko'ndalang qilib qo'ymoqda.

Shaxsning ma'naviy, ruhiy kamoloti ta'minlanmasa, jamiyatning moddiy-texnik taraqqiyoti bir tomonlama bo'ladi va kutilgan natijani bermaydi. Ruhiy ibtido yoshlar qalbini yuksak madaniyat va axloqiy fazilatlar bilan boyitishga, ularning umuman millatning ruhiy-ma'naviy rostdanlashiga yordam berishi kerak.

Barkamol shaxsni tarbiyalash gumanitar ta'lim va tarbiyaning muhim qismlaridan biri sifatida talaba-yoshlar ruhiy olamining shakllanishida, hayotiy pozitsiyalarning mustahkalanishida, ularning ijtimoiy faolligining o'sishi va ixtisoslik bilimlari hamda umumnazariy tayyorgarligining oshishida asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Insoniyat tomonidan to'plangan behisob madaniy boyliklardan bahramand bo'lish, ularni o'zlashtirish yoshlarda gumanistik dunyoqarashning vatanparvarlik, vijdon, e'tiqod, or-nomus, sha'n, mardlik, jasorat, oliyhimmatlik, fidoiylilik, insonparvarlik kabi qadriyatlarning shakllanishiga yordam beradi. Yoshlarda bunday sifat va fazilatlarni tarbiyalash maorif va oliy

ta'lim tizimida ustivor ahamiyatga ega bo'lishi kerak. Zero, Prezident I.A.Karimov ta'kidlaganidek, siyosatda, iqtisodda va ma'naviyat sohasidagi islohotlarning taqdiri o'sib kelayotgan yosh avlodga bog'liq.

Barcha talaba-ta'lim oluvchilarni Respublikamizning tarixiy shaharlariga, diqqatga sazovor joylariga muntazam ravishda sayohatlar uyushtirib turish, muzeylarga, ko'rgazmalarga, teatrlarga, konsertlarga maxsus jadval tuzib ommaviy ravishda olib borish, ta'lim muassasalarida ularning mehnat va urush faxriylari bilan, zamonamiz qahramonlari bilan, san'atkorlar, shoir-yozuvchilar, shifokorlar, huquq-tartibot idoralarining mas'ul xodimlari, mahalla oqsoqollari, ota-onalar bilan davra suhbatlarini, uchrashuvlar tashkil etish-bular hammasi yoshlarda milliy iftixor, vatanparvarlik tuyg'ularini tarbiyalash bilan birga ularning dunyoqarashini yanada kengaytirishga, boyitishga umuminsoniy saviyasini oshirishga yordam beradi. O'quv yurtlarida talabalarning qiziqishlari bo'yicha tashkil etilgan turli xil to'garaklar, klublar, sport seksiyalari, kasb-hunar sexlari ham talaba-yoshlarning uyg'un rivoji uchun yaratilayotgan sharoitlardandir.

Tarbiyaviy maqsad – aniq o'lchamli ishlarga oid vazifalarni belgilab beradi. Har bir ishda asosiy g'oya, yo'nalish (aqliy, jismoniy, mehnat tarbiyasi va boshqalar) ajralib turadi.

Tarbiyaviy maqsadni belgilash bosqichida pedagogning vazifasi professor-o'qituvchilarning murabbiylik faoliyatini asosiy maqsadga yo'naltirish, tarbiyalanuvchilarning muayyan ta'sir tizimini qabul qilishga tayyorgarlik darajasiga tashxis qo'yishdan iboratdir.

Davlat va jamiyatimiz oldida turgan hozirgi maqsadlar bilan boshlanuvchi ijtimoiy pedagogik buyurtmadan kelib chiqqan holda, uzluksiz tarbiya tizimi mazmuniga quyidagi asosiy yo'nalishlar kiritiladi:

vatanparvarlik tarbiyasi	axloqiy tarbiya
mafkuraviy tarbiya	iqtisodiy tarbiya
fuqarolik tarbiyasi	jismoniy-gigiyenik tarbiya
ekologik tarbiyasi	kasbiy tarbiya
tarixiy tafakkur tarbiyasi	milliy g'urur tarbiyasi

jamoaviylik tarbiyasi

oilaviy tarbiyasi

huquqiy tarbiya

diniy bag'rikenglik tarbiyasi

baynalmilal tarbiya

badiiy-estetik tarbiya

intellektual tarbiya

mehnat tarbiyasi

Barkamol shaxs tarbiyasi – shaxsni ma'naviy-ahloqiy shakllantirish, Vatan mustaqilligi mustahkamlash, jamiyat va davlat manfaatlariga xizmat qiluvchi, intellektual salohiyatli, erkin fikrlovchi shaxslarni tarbiyalashga qaratilgan tarbiyaviy jarayonlar majmuasidir. Ma'naviy-ahloqiy tarbiyaning asosiy maqsadi – Davlat va jamiyatga xizmat qiluvchi, Vatanga fidoiy, ahloqiy barkamol intellektual kadrlarni tarbiyalab voyaga yetkazishdir.

Barkamol shaxsni tarbiyalashning asosiy yo'nalishlari

Tarbiyaviy jarayonni ta'lim muassasasida shakllantirishda muhitni qayta shakllantirish va rivojlantirishni, «oil-ta'lim muassasasi-mahalla» hamda «tarbiya-muhit» uzviyligining mazmun va mohiyatan birligini mustahkam asoslarda ta'minlash kerak. Buning uchun milliy ma'naviyat tushunchasi, shaxs ma'naviyati va umuminsoniy qadriyatlar haqida batafsil ma'lumotga ega bo'lmog'imiz zarur.

1. Milliy ma'naviyat tushunchasi. “Millat” so'zi tub mohiyat, o'zak, negiz degan ma'nolarni bildiradi. Milliy ma'naviyat esa “Millat” tushunchasi bilan bog'liq. “Millat” so'zi arab tilida uch ma'noni bildiradi: 1) din, mazhab; 2) ummat; 3) xalq, qavm. Millat so'zi Kur'oni Karimda ham qo'llanilgan. Qur'onda har bir millat vakili o'z milliy qadriyatlarini rivojlantirishi savobli ish, lekin o'z millatidan, qavmidan chiqib, boshqa millatga o'tib olishi esa katta bir gunoh deb ta'rif berilgan.

Jamiyat rivojlanib borgan sari insonlar, xalqlar millatlar o'rtasidagi ma'naviy munosabat va aloqalar rivojlanib boraveradi. Bu borada ma'naviyatni **besht guruhga** bo'lib o'rganish mumkin:

1) ma'naviy qadriyatlar;

2) milliy ma'naviyat;

3) shaxs ma'naviyati;

- 4) mintaqaviy ma'naviyat;
- 5) umuminsoniy ma'naviyat.

Ma'naviy qadriyatlar – bu millatimiz barpo etilgandan to hozirgi kungacha bo'lgan barcha urf-odatlarimiz, andisha-yu g'ururimiz marosim va an'analarimiz, davom etib kelayotgan hunarmandchiligimiz, san'at asarlarimiz, yozma manbalaru yodgorliklarimiz, milliy inshoatlarimiz boy merosimizdir. Milliy ma'naviyat esa – muayyan elat, millatga, uning ajdodlariga xos bo'lgan bag'oyat qimmatli ma'naviy boyliklardir. Milliy ma'naviyat boshqa millat ma'naviyatidan tubdan farq qiladigan ma'naviyat degani emas. Chunki bizdagi milliy ma'naviyat boshqa xalqlarda muayyan tarzda bor, mavjuddir. Ammo, milliy ma'naviyatda boshqa xalqlarning ma'naviyati aynan takrorlanmaydi. Milliy ma'naviyat avvalo tarixiy xodisa ekanligi bilan ajralib turadi. U bir kunda bir yilda yoki o'n yilda mukammal shakllanmaydi. Milliy ma'naviyat takomillashuvi uning tarixi bilan chambarchas bog'liqdir.

Shaxs ma'naviyati – bu har bir shaxsga tegishli bo'lib, uning ichki ruhiy holati, hatti-harakatlari munosabatlari boshqa qirralarini o'z ichiga oladi. Mintaqaviy ma'naviyat esa – muayyan geografik mintaqa millatlariga xos, ular uchun umumiy bo'lgan ma'naviy boyliklardir. Masalan, O'rta Osiyo xalqlarining ma'naviyatidagi yoki kengroq qaraydigan bo'lsak, Sharq va G'arb ma'naviyatidagi mushtaraklik, o'xshashlikni olishimiz mumkin. Mintaqaviy ma'naviyatda turli elatlarning umumiy birligi, bir-biriga yaqinligi, turmush tarzi va moddiy hayot sharoitlariga xos mushtarak jihatlar namoyon bo'ladi. Umuminsoniy ma'naviyat – bu butun insoniyatga jahon xalqlariga tegishli bo'lgan ma'naviy-axloqiy boyliklardir.

O'zbek xalqi uchun umuminsoniy ma'naviyat bilan birga milliy ma'naviyat va uning boyliklari ham g'oyat qimmatlidir. O'zbek xalqining hozirgi milliy ma'naviyati va qadriyatlari o'tmish milliy ma'naviyatining davomi bo'lib ularga do'stlik, o'rtoqlik mehmondo'stlik, odamgarchilik, insonparvarlik, axloqiy teranlik, tadbirkorlik, saxiylik, xushmuomalalik, jamoa ichida o'zini tuta bilishlik, xayolilik, hurmat bilan muomila qilish, ozodalik, xushchaqchaklik, xushfe'llik,

mardlik, samimiylik, lutfi karamlilik, ro'zg'orparvarlik, shirinso'zlik, tashabbuskorlik, ona-yurt va xalqiga muhabbatlilik, insofililik, diyonatlilik, rostguylilik, halollik, or-nomuslilik, to'g'rilik, poklik, sabr-andishalik, vazminlik, hojatbarorlik, mehnatsevarlik, o'tmishga hurmat, insofililik, iymonlilik, milliy g'urur, mustaqillikni qadrlash, vatanparvarlik, millatparvarlik va boshqa milliy ma'naviy-axloqiy fazilatlar kiradi.

O'zga millatlarning ma'naviy qadriyatlari qanchalik ta'sir ko'rsatmasin, kattalarga, ota-onaga hurmat, kamtarlik, halollik, iymon mehnatsevarlik, mehmondo'stlik singari milliy ma'naviy hislatlarimiz barqarordir. Chunki bu ma'naviy hislatlar qon-qonimizga singib ketgan. Xalqimizning axloq, andisha, sharmu-hayo, halollik va pokizalik, inson qadr-qimmatini to'g'risidagi ma'naviy qadriyatlariga zid bo'lgan yevropacha an'analar yoshlar ma'naviyatiga salbiy ta'sir o'tkazmoqda. Shu tufayli ma'naviy tubanlik yuzaga kelmoqda. Yoshlar orasida asriy milliy ma'naviyatimizga zid bo'lgan bag'ritoshlik, qotillik, giyohvandlik, xudbinlik, maishiy buzulish kabi ma'naviy qiyofalar yuzaga kelib ildiz ota boshladi.

Abdulla Avloniy va boshqa ma'rifatparvar allomalarimiz XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida Turkistonda hukmron bo'lgan ma'naviy inqiroz haqida gapirib, bu og'ir vaziyatdan ta'lim-tarbiya ishlarini yaxshilash, axloqni yuksaltirish orqaligina chiqish mumkinligini qayd qilgan edilar. A.Avloniyning ta'kidlashicha: "Tarbiya –bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat- yo falokat masalasidir". Bu fikrlarning ahamiyati hozirgacha e'tibordan chetda qolgani yo'q. O'zbek millati faqat milliy ma'naviy kamolot orqaligina yuzaga kela boshlagan milliy-ma'naviy buzulishning oldini olish mumkin. Milliy mustaqillik tufayli jamiyatimizda milliy ma'naviy poklanish, o'nglanish, tiklanish jarayoni yuz berdi. Milliy tarbiya – millatni, elatni tashkil qiluvchi kishilarning milliy madaniyatni, merosni, qadriyatlarni, urf-odatlarini, an'analarni o'zlashtirishdagi faoliyatini rivojlantirish bo'lib, u milliy ong va milliy o'zlikni anglashning subyektidir. Milliy tarbiyaning asosiy yo'nalishlarini millatparvarlikni, xalqparvarlikni, mehnatsevarlikni, yuksak insoniylikni rivojlantirish, meros, urf-

odat va qadriyatlarni fan texnika, texnologiyalarni o'zlashtirishga intilishni rivojlantirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning mohiyatini tushunib yetish va unga amal qilish ruhiyatini shakllantirish kabilar tashkil etadi.

2. Milliylik va umuminsoniylik. Umuminsoniy ma'naviyat o'z ijobiy ahamiyatini hech qachon yo'qotmagan. Oltin zanglamas, quyosh qoraymas deganlaridek, umuminsoniy ma'naviyat har doim qadimiy va navqiron bo'lib qolaveradi. Ular umumbashariy ma'naviyat deb ham yuritiladi.

Umuminsoniy ma'naviyat butun insoniyatga, jahon xalqlariga tegishli bo'lgan ma'naviy boyliklardir. Umuminsoniy ma'naviyat uzoq va yaqin o'tmishda yaratilgan, hozirda esa ma'naviy jihatdan juda qimmatli, inson qalbida o'chmas iz qoldiradigan, mangu yashaydigan, insoniyat ijtimoiy manfaati, ehtiyoji uchun xizmat qiladigan, ularni ezgulikka yo'llaydigan ma'naviy boyliklardir. Agarda milliy ma'naviyat bo'lmasa, umuminsoniy ma'naviyat ham bo'lmaydi. Umuminsoniy ma'naviyatsizlik esa, hozirgi zamon millatlarining jipsligi yo'q degani. Millatlar umumjahon, umumbashariy ma'naviyatning yaratuvchilaridir. Umumjahon, umuminsoniy ma'naviyat esa hozirgi zamon ilg'or millatlari taraqqiyotining zamini, tayanchi va negizidir. Mustaqil O'zbekiston taraqqiyotida milliy va umuminsoniy ma'naviyatning ana shu dialektik bog'liqligini hisobga olishimiz davr talabidir.

3. Milliy ma'naviy tiklanishning mohiyati. Prezidentimiz I.A.Karimovning milliy-ma'naviy tiklanishga bag'ishlangan konsepsiyasida vatanparvarlik shaxs ma'naviyatining ajralmas qismi ekanligini asoslab berish alohida o'rinni egallaydi. Darhaqiqat o'z Vatanini sevmagan, vatanini tuprog'i uchun mas'ulligini his etmagan inson ma'naviy jihatdan qashshoq hisoblanadi. Shu yerda bir muhim masalaga aniqlik kiritish lozim bo'ladi. U ham bo'lsa "Milliy taraqqiyot" va "Milliy tiklanish" tushunchalarining mohiyati, mazmun va mezon masalalaridir.

Milliy taraqqiyot bu – evolyusion xarakterga ega bo'lib, u pastdan yuqoriga tomon ko'tarilishdan iborat bo'lgan jarayondir. U millatning shakllanishi takomillashuvi va yuksalishi kabi uzluksiz jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Milliy tiklanish esa, millat taraqqiyoti tarixining ma'lum bir bosqichida boy

berilgan salohiyatni qaytadan millat taraqqiyotiga yo'naltirish bilan bog'liq bo'lgan jarayondir. Milliy tiklanish millat hayotida sodir etiladigan, zo'ravonlik yo'li bilan, uning avlod ajdodlari tomonidan yaratilgan meros, urf-odatlar, an'analar qadriyatlardan mahrum etilgan, tarixiy xotirasi toptalgan. Milliy o'zligini anglashi cheklangan, manfaatlari, maqsadlari, huquqlari poymol etilgan, tarixiy taraqqiyotning ma'lum bosqichiga kelib esa, o'z mustaqilligini qo'lga kiritish natijasida milliy rivojlanish borasida ana shu boy berilgan imkoniyatlardan foydalanish, yaratilgan barcha moddiy va ma'naviy boyliklarni milliy rivojlanishga qaratilgan umummilliy faoliyat hisoblanadi.

Haqiqatdan ham millat qachonki, milliy zaminlarga tayansagina ko'zlagan taraqqiyotiga erishish mumkin. Har qanday millat hyech qachon o'zgalarning ma'naviy yordami bilan millat darajasiga ko'tarila olmaydi va ma'naviy rivojlanishga erisha olmaydi.

Milliy ma'naviy tiklanishning asl mohiyati ham kelib insonparvarlikka taqaladi. Chunki mustaqillik sharoitida milliy g'oya va milliy mafkurani shakllantirish hamda uni xalqimiz dunyoqarashiga aylanishiga erishish uchun ham ta'lim-tarbiya jarayonida insoniy qadr-qimmatning yuqori darajada ekanligini tushunib olishimiz darkor.

XULOSA

O'zbekiston mustaqil davlatga aylangan bir sharoitda barkamol avlod tarbiyasi qator omillar ta'sirida amalga oshiriladi. Ma'naviy-axloqiy sifatlar shaxsning barcha muhim xususiyatlarini yaxlit holga keltiradi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya yoshi va ta'lim oluvchining to'g'ri yo'nalish olish uchun hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadigan muhitini ham hisobga olganda shaxsning butun hayotiy faoliyati jarayonida amalga oshiriladi. Ma'naviy-axloqiy bilim asosan barkamollik, axloq to'g'risidagi suhbatlar, ma'ruzalar, tanlangan mavzuga oid kechalar, turli kasb namoyondalari bilan uchrashuvlar, anjumanlar va boshqa tadbirlar orqali amalga oshiriladi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning mazmuni avvalo ta'lim oluvchilarning amaliy faoliyatlarida, o'qish, mehnat, jamoatchilik ishlarida, ularning munosabatlari xarakterida, o'zaro ta'sir ko'rsatish usullari, xulq-atvor me'yorlarini o'zlashtirishlarida namoyon bo'ladi.

Psixologlarning aniqlashlaricha, kichik maktab yoshi axloqiy talab va me'yorlarni o'zlashtirishga moyilligining yuqoriligi bilan xarakterlanadi. Bu shaxs rivojlanishiga o'z vaqtida axloqiy poydevor qo'yish imkonini beradi. Kichik yoshda shaxsning axloqiy rivojlanishini belgilovchi tarbiyaning mohiyati bolaning hissiy hozirjavobligiga tayanuvchi insonparvarlik munosabati va o'zaro munosabatlarini shakllantirishdan iborat.

O'smirlik yoshida yaqin atrof muhitini o'zlashtirishda muayyan tajriba paydo bo'ladi, tengdoshlar bilan barqaror aloqalar o'rnatiladi, o'z-o'zini anglash, xususiyl shaxsini tasdiqlashga ehtiyoj kuchayadi. O'smir atrofdagi kishilar namunasiga ergashadi, ideal axtarish, o'z mavqeyini belgilash vositasini tanlashga intiladi.

O'z-o'zini anglashni rivojlantirish, o'z o'rnini topish ehtiyoji o'spirin uchun xarakterli xususiyatdir. Bu ehtiyoj inson shaxsiga qiziqish, insonlarning ishlariga, ularning asoslangan doirasiga tahliliy yondashish tuyg'ularini shakllantiradi.

O'z-o'zini anglash hissiyoti rivojlanishning ma'lum bosqichida o'spirinda hayotda o'z o'rnini topish ehtiyoji paydo bo'ladi. Bu ehtiyoj shaxsning ijtimoiylashish jarayoni, ilgarigi hayotiy tajribasi, ruhiy va jismoniy

rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari qanday o'tishiga bog'liq ravishda nihoyatda qarama-qarshilikda namoyon bo'ladi.

O'z mavqeini belgilashga intilish o'spirinlik vaqtida tez-tez namoyon bo'lib turadigan faol mustaqillikning o'sishi bilan qo'shilib ketadi. Hozirgi ta'lim oluvchilarning intellektual rivojlanishi ayrim hollarda eng avvalo atrofdagi odamlar bilan o'zaro munosabat va o'zaro ta'sirda oliy ma'naviy tuyg'u va axloqiy hatti-harakat tajribasida o'zib ketadi.

O'smirlik va o'spirinlik yoshi tarbiya uchun qiyin davr hisoblanadi, holbuki, agar tarbiyachi ta'lim oluvchini, oilasini, uning rivojlanishida yuzaga keladigan qiyinchiliklarning harakterini bilsa bu qiyinchiliklarning oldi olinishi mumkin.

O'spirinlik va ayniqsa ilk o'smirlik yoshlarida ta'lim oluvchilar boshqa kishilarning asosiy hatti-harakati va ishlarini tahlil qiladilar, oqibatda shakllangan qarashlarini o'zgartirish qobiliyatiga ega bo'ladilar. Bu esa axloqiy namunalarni o'zlashtirishlariga ijobiy ta'sir qiladi.

Barkamol shaxsni tarbiyalashda o'quv yurtining umumiy muhiti katta ahamiyatga ega. Bilim, malaka va ko'nikmalar, an'analar, jamoa qonunlari bilan qo'llab-quvvatlanayotgan fe'l-atvorning shakllanish usullari ta'lim oluvchilar tomonidan yengil o'zlashtiriladi. Fe'l-atvor tajribasini tashkil qilish asosan barqaror ijobiy ta'sir vositalarini yaratishdadir.

Ta'lim tizimida barcha tarbiya turlarini ta'lim jarayonida barcha pedagoglar uqtirishga harakat qilishadi. Lekin, shunga qaramay yoshlarimizning ba'zilar shak-shubhasiz ongini zaharlovchilarga duch kelib qolsa nojo'ya ishlarni qilishga jalb etilayotganini ham bilmay qoladi. Biz bularning oldini olish uchun ham foydali tarbiya turlarini amaliyotga joriy etib borishimiz kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karmov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. – Toshkent: Sharq, 2008.
2. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. –T.: «Sharq». 1998.
3. Prezident I.A.Karimovning O'zR Konstitusiyasining 17 yilligiga bag'ishlangan bayram dasturidagi ma'ruzasi, 2009 yil 6 dekabr.
4. «Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir». Prezident I.A.Karimovning 2009 yilning yakunlari va 2010 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi, 2010 yil 29 yanvar.
5. “Mamlakatimizni modernizasiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir”. Prezident I.A.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi, 2010 yil 27 yanvar.
7. Hasanboyeva O. Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish metodikasi. -T., 1996.
8. Pedagogika. prof. A.Munavvarov tahriri ostida, o'quv qo'llanma. –T: “O'qituvchi”, 1996.
9. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. 2 jildli. K.Hoshimov, Safo Ochil -T. : O'qituvchi, 1999.
10. Mahkamov U.I. Ta'lim oluvchilarning axloqiy madaniyatini shakllantirish muammolari. -T.: FAN, 1995.
11. Ziyomuxammedov B. Komillikka eltuvchi kitob. “Turon-iqbol nashriyoti”, Toshkent, 2006.
12. Maxkamov U. Axloq-odob saboqlari. T. 1994.
13. Musurmonova O. O'quvchilarning ma'naviy madaniyatini shakllantirish. T. 1993.
14. Ismailova Z.I. Tarbiyaviy ish metodikasi. T. 2003.
15. Internet ma'lumotlari. www.ziyounet.uz, www.pedagog.uz, www.kutubxona.uz saytlari